

O`QUVCHILARNING BILIM KO`NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISH

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo`nalishi

203-guruh talabalari

Toxirjonova Mushtariy

Olimjonova Feruza

**ДИАГНОСТИКА ЗНАНИЙ, УМЕНИЙ И НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ
СПОСОБСТВУЕТ ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ.**

**DIAGNOSIS OF STUDENTS' KNOWLEDGE, SKILLS, AND
COMPETENCIES HELPS IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini (BKM) tashxis etishning pedagogik mohiyati, maqsadi, vazifalari hamda institut dasturlarida belgilangan zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirish yo'llari yoritiladi. Tashxis etish jarayonining ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: tashxis, baholash, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim sifati, nazorat, monitoring.

Аннотация: В данной статье раскрывается педагогическая сущность диагностики знаний, умений и навыков учащихся, ее цели, задачи и пути реализации на основе современных подходов, предусмотренных институтскими образовательными программами. Показана роль диагностического процесса в повышении качества и эффективности образования.

Ключевые слова: диагностика, оценивание, знания, умения, навыки, качество образования, контроль, мониторинг.

Annotation: This article examines the pedagogical essence of diagnosing students' knowledge, skills, and abilities, its goals, objectives, and methods of implementation based on modern approaches defined in higher education curricula. The role of the diagnostic process in improving the quality and effectiveness of education is highlighted.

Keywords: diagnosis, assessment, knowledge, skills, abilities, quality of education, control, monitoring.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash hamda baholash muhim pedagogik vazifalardan biridir. Institut dasturlarida belgilanganidek, ta'lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki o'quvchining o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish darajasini ham aniqlash talab etiladi. Shu sababli BKMni tashxis etish ta'lim sifatini boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Bilim, ko'nikma va malaka tushunchalari

Bilim – kishilarning tabiat jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan voqelik ma'lumotlar; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va qoidalarga zid kelmasa bunda ishonch hisoblanadi. Voqelik haqidagi bilgan ma'lumotlarimiz bilim darajasiga ko'tarilishi uchun quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma'lumotlarning voqelikka mutanosibligi; ikkinchidan, yetarli darajada ishonarli bo'lishi; uchinchidan, bu ma'lumotlar dalillar bilan asoslangan bo'lishi lozim. Uchala shart birga mavjud ma'lumotlarni bilim darajasiga olib chiqadi. Inson ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bilmasliqdan bilishga, mavhum bilimlardan mukammal va aniq bilimlar hosil qilish tomon boradi. Kishining moddiy dunyo to'g'risidagi bilimi nisbiydir, u doimo rivojlanib boradi.

Ko'nikma — egallangan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati. insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko'nikmalarlar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir.

Malaka — ko‘nikmalarning avtomatlashtirilgan, barqaror shakli bo‘lib, faoliyatni tez va aniq bajarishni ta‘minlaydi. - bu biror kasb yoki faoliyatni sifatli va professional darajada bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, tajriba va mahoratning yig‘indisi; ishni mohirona uddalash qobiliyatidir. Bu shunchaki nazariy bilim emas, balki amaliy tajribani ham o‘z ichiga oladi va har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun muhim omil hisoblanadi.

Tashxis etishning maqsad va vazifalari. O‘quvchilarning BKMLarini tashxis etishning asosiy maqsadi — ta‘lim natijalarining davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlariga mosligini aniqlashdir. Asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash;
- ko‘nikma va malakalarning shakllanish holatini baholash;
- ta‘lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash;
- o‘qitish metodlarini takomillashtirish;
- individual yondashuvni ta‘minlash.

Tashxis etish turlari

- 1. Boshlang‘ich tashxis** — o‘quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasini aniqlash.
- 2. Joriy tashxis** — dars jarayonida bilim va ko‘nikmalarni muntazam tekshirib borish.
- 3. Oraliq tashxis** — ma‘lum bir bo‘lim yoki mavzu yakunida amalga oshiriladi.
- 4. Yakuniy tashxis** — o‘quv yili yoki kurs oxirida ta‘lim natijalarini umumiy baholash.

Tashxis etish usullari va shakllari

og‘zaki so‘rov va suhbat

yozma nazorat ishlari

test topshiriqlari

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Institut dasturlarida belgilangan talablar asosida olib borilgan tashxis ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash va zamonaviy raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartlari.
2. Pedagogika. Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik.
3. Didaktika va ta’lim nazariyasi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat.
5. Mirziyoyev Sh.M. Ta’lim va tarbiya – taraqqiyot poydevori. – Toshkent.
6. Pedagogika: Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent.
7. Didaktika asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent.
8. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar / N. Sayidahmedov. – Toshkent.
9. Ta’limda baholash va monitoring masalalari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent.
10. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’limni tashkil etish. – Toshkent.
11. O‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash metodlari. – Toshkent.
12. Pedagogik diagnostika asoslari: darslik. – Toshkent.
13. Ta’lim jarayonida nazorat va baholash texnologiyalari. – Toshkent.
14. Oliy ta’limda o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent.
15. Pedagogik mahorat va baholash mezonlari. – Toshkent.

16. Ta'lim sifatini boshqarish va monitoring qilish. – Toshkent.
17. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York.
18. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning. – London.
19. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – New York.
20. Zamonaviy ta'limda diagnostik yondashuvlar bo'yicha ilmiy maqolalar